

## O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA EKOTURİZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONİYATLARI, MUAMMO VA YECHİMLAR

**Annotatsiya:**

**Kirish.**

Birlashgan Millatlar Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, butun jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizidan ortig'i, dunyodagi investitsiyalarning 7 foizi, soliq tushumlarining 5 foizi, jahondagi iste'molchilik xarajatlarining 11 foizi va har 16 ta yangi yaratilayotgan ish o'rningittasi aynan turizm va mehmondo'stlik industriyasining hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, xorijiy turistik oqim hajmida ekoturistlarning o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi 20 foizni tashkil etib kelishi natijasida bugungi kunda ekoturistik xizmatlarning jahon turizm industriyasini tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibidagi ulushi 25 foizga yetdi.

**Tadqiqot usullari.**

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, gravitatsiya usuli, ko'p omilli regressiya, tahlil, induksiya va deduksiya, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarini bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

**Natijalar va muhokamalar.**

Ekologik turizm va uning turli shakllarini rivojlantirishning nazariy jihatlari Robert L.David A., Fennell, Martha Honey, David Weaver, Stephen Wearing, John Neil, Robert Fletcher kabi xorijlik olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari M.B.Birjakov, V.S.Bogolubov, V.P.Orlovskaya, A.Durovich, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, V.S.Senin, T.T.Xristov, A.D.Chudnovskiy, V.G.Fedsov, V.V.Xrabovchenkolar o'z tadqiqotlarida ekologik turizmni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish muammolari Q.X.Abdurahmanov, N.T.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, M.K.Pardayev, B.X.Turayev, M.T.Aliyeva, M.R.Boltaboyev, YE.V.Golisheva, O.X.Xamidov, A.N.Norchayev, A.A.Eshtayev, B.SH.Safarov, M.T.Alimova, M.Xoshimovlar kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

**Xulosa.**

Fikrimizcha, keyingi yillarda yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish bilan birgalikda, mamlakatning ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagilarga ustuvorlik qaratish lozim:

- milliy ekoturizm industriyasini shakllantirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy asoslarni ishlab chiqish, jumladan, uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan «Ekoturizmni rivojlantirish konsepsiysi»ni amaliyatga joriy etish;

- oliv ta'lim muassasalarida ekoturizm bo'yicha ta'lim berish jarayonlarini mamlakatdagi ekoturistik xizmatlar ko'rsatish amaliyoti bilan bog'liqligini kuchaytirish;

**Kalit so'zlar:**

ekoturist, ekoturizm, ekologik resurs, ekologik barqarorlik, «safari» turizmi, harakatlantiruvchi drayverlar, xalqaro ekoturistik xizmatlar, avtonom infratuzilma, turistik salohiyat, turistik qishloq, turistik maxalla, «SWOT» tahlili.

**Kirish.**

Birlashgan Millatlar Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, butun jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizidan ortig'i, dunyodagi investitsiyalarning 7 foizi, soliq tushumlarining 5 foizi, jahondagi iste'molchilik xarajatlarining 11 foizi va har 16 ta yangi yaratilayotgan ish o'rningittasi aynan turizm va mehmondo'stlik industriyasining hissasiga

to‘g‘ri kelmoqda. Jumladan, xorijiy turistik oqim hajmida ekoturistlarning o‘rtacha yillik o‘sish ko‘rsatkichi 20 foizni tashkil etib kelishi natijasida bugungi kunda ekoturistik xizmatlarning jahon turizm industriyasi tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibidagi ulushi 25 foizga yetdi.<sup>1</sup> Bu esa jahon mamlakatlarida ekoturizmni rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish zaruriyatini uyg‘otadi.

Mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravar oshgan. Soha eksporti 1 milliard 600 million dollarni tashkil etgan. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani natijasida u yerga qo‘sishimcha 2 million sayyoh kelgan.

### ***Tadqiqot usullari.***

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, gravitatsiya usuli, ko‘p omilli regressiya, tahlil, induksiya va deduksiya, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

### ***Natijalar va muhokamalar.***

Ekologik turizm va uning turli shakllarini rivojlantirishning nazariy jihatlari Robert L.David A., Fennell, Martha Honey, David Weaver, Stephen Wearing, John Neil, Robert Fletcher kabi xorijlik olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi mamlakatlari olimlari M.B.Birjakov, V.S.Bogolubov, V.P.Orlovskaya, A.Durovich, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, V.S.Senin, T.T.Xristov, A.D.Chudnovskiy, V.G.Fedsov, V.V.Xrabovchenkolar o‘z tadqiqotlarida ekologik turizmni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish muammolari Q.X.Abdurahmanov, N.T.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, M.K.Pardayev, B.X.Turayev, M.T.Aliyeva, M.R.Boltaboyev, YE.V.Golisheva, O.X.Xamidov, A.N.Norchayev, A.A.Eshtayev, B.SH.Safarov, M.T.Alimova, M.Xoshimovlar kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Biroq iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ekologik turizm yo‘nalishida baholash mexanizmi masalalari alohida, monografik planda tadqiq etilmagan.

Ekoturizm sohasini rivojlantirish faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kirgan xalqaro tashkilotlar ham ekoturistik xizmatlar obyektini aniqlash bo‘yicha turli yondashuvlarni taklif etadilar. Jumladan, Juhon turizm tashkiloti (WTO) ekspertlari tomonidan ekoturizmni obyekti sifatida ekoturistik xizmatlar ko‘rsatilayotgan hududning turistlarni o‘ziga jalb etib, qiziqtira oladigan tabiat va uning boyliklari sifatida baholanadi.<sup>2</sup> Ushbu yondashuvni ekoturizmning obyekti aniq ko‘rsatilmaganligi sababli iqtisodiy adabiyotda ekoturizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda ushbu yondashuvdan kamdan kam holatlarda foydalaniladi.

Xalqaro ekoturizm jamiyati (TIES) tomonidan o‘tkaziladigan tadqiqotlarda esa ekoturistik xizmat ko‘rsatish sohasining obyekti sifatida insonlarning salbiy ta’siridan saqlanadigan, qo‘riqlanadigan hududlar, «yashil zona»lar, ekoturistik mintaqalar kabilar baholanadi.<sup>3</sup> Juhon yovvoyi tabiat fondi (WWF) vakillari esa, inson tomonidan hali zarar yetkazilmagan, o‘zlashtirilmagan tabiat boyliklari va hududlar, yovvoyi tabiat hukm suradigan o‘rmonlar, qo‘riqxonalar, flora va fauna dunyosi ekoturizmning obyekti,<sup>4</sup> degan g‘oyani ilgari suradilar.

O‘zbekistonda ekoturistik xizmatlar bozorini rivojlantirishda mamlakat aholisining uzoq yillik tarixiy yashash-shart-sharoitlariga ustuvorlik qaratilganligi bilan ajralib turadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, o‘zbeklar uch ming yillik ko‘chmanchi shaklda chorvachilik xo‘jaligi yuritish bilan shug‘ullanigan bo‘lib, tog‘oldi yaylovlarida o‘z chorvalarini boqish bilan shug‘ullanib kelganlar. Qishki mavsumlarda chorvalarni boqish uchun vodiylar va tog‘lararo chuqurliklar tanlangan bo‘lsa, kuzgi va bahorgi mavsumlarda qor qoplamidan erta bo‘shagan qishlash joylariga

<sup>1</sup> Первозданная природа Казахстана – потенциал для развития экотуризма. [Электронный ресурс] – URL: <https://www.undp.org/ru/kazakhstan/stories/>

<sup>2</sup> World Tourism Organization. <https://www.unwto.org/ru>

<sup>3</sup> The International Ecotourism Society. <https://ecotourism.org/>

<sup>4</sup> World Wildlife Fund. <https://www.worldwildlife.org/>

tutash maydonlar tanlangan. Yozgi mavsumda esa ochiq yaylovlar va chorvani sug‘orish uchun suv resurslari mayjud bo‘lgan tog‘lararo joylashgan alp vodiylarida chorva mollari boqilgan.

Aslida mamlakatimizda bu sohadagi salohiyat bundan ancha yuqori. Ayniqsa, ekologik turizm yo‘nalishida mamlakatimizda ulkan salohiyat mavjudki, hozirda ushbu salohiyatning katta qismidan foydalanmasdan kelinmoqda.

Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan ekoturizmni barqaror rivojlantirish dasturi bayon etilgan bo‘lib, unda ekoturizmni rivojlantirish uchun iqlim o‘zgarishlari, chiqindilarni boshqarish, yerdan oqilona foydalanish, alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda biologik xilmallikni saqlash masalalariga alohida e’tibor qaratilagn. Jahon ekoturizm bozori hajmi 2021-yildagi 157,7 milliard AQSH dollardan 2022-yilda o‘rtacha 17,5 foizga o‘sib, 185,3 mlrd AQSH dollariga teng bo‘ldi<sup>1</sup>.

Ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha so‘nggi yillarda jahon amaliyotida kuzatilayotgan tendensiyalarga ko‘ra, alohida muhofaza qilinadigan hududlar, tabiiy, madaniy va manaviy yodgorliklar, rekreatsion hududlar, ekoturistik xizmatlar tashkil etilayotgan hududlardagi ekotizimlarni himoya qilish bilan birgalikda, tabiiy boyliklar va ekologik resurslardan oqilona foydalanishga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda.

Mutaxassislarga ko‘ra, ekologik nuqtai-nazardan ekoturistik xizmatlar quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- ekoturistik maqsadlarda hududlarga tashrif buyurgan turistlar boshqa turistlarga nisbatan ekologik madaniyati yuqori bo‘lib, ularning atrof-muhitga zarar yetkazish darajasi sezilarli darajada kam bo‘ladi. Ya’ni, duch kelgan joyda tartibsiz hordiq chiqarish natijasida atrof-muhitni ifloslanishining oldini olishga erishiladi. Bunda ekoturistik xizmatlar tashkil etish yashil hududlarga turli xil axlatlarni tashlab ketish, ifloslantirish kabi salbiy xususiyatlар kamdan kam holatlarda uchraydi;

- ekoturistik xizmatlar ko‘rsatilayotgan hududlarda istiqomat qiluvchi maxalliy aholining qo‘shimcha daromadlari ortib borgani sari, ushbu hududlarda iqtisodiy faoliyat yuritishning ekologik jihatdan zarar yetkazish darajasi kam bo‘lgan muqobil turlari rivojlanadi;

- atrof-muhitni himoyalash va ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar soni ortib, bu boradagi ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga erishiladi. Jumladan, mamlakatning ekologik barqarorligini ta‘minlash imkoniyatlari kengayib, maxalliy aholining atrof-muhitni himoyalashdagi ishtiroki, majburiyatlari va bundan manfaatdorligi ortadi.<sup>2</sup>

Yangi O‘zbekistonda turizm sohasi iqtisodiyotning harakatlantiruvchi drayverlaridan biri sifatida belgilanib, uni rivojlantirish uchun zarus shart-sharoitlar yaratilmoqda. «...suv omborlari, o‘rmon xo‘jaligi yerlarini o‘rganib, xavfsiz yerkarda turistik zonalar tashkil etish mumkin. Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiyning cho‘l hududlarida «safari» turizmini rivojlantirish ham mumkin»<sup>3</sup>. Bu, o‘z navbatida, ekoturizmga ustuvorlik bergan holda hududlarning turizm infratuzilmasini diversifikatsiya qilish va modernizatsiyalashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda turizm sohasida erishilgan natijalar bilan bir qatorda ekoturizmni kompleks rivojlantirishning maqsadga muvofiqligini belgilashga imkon beruvchi «safari» turlari, madaniy va sport tadbirlari uchun infratuzilmani yaratish, yangi «turizm qishloq»lar barpo etish, ekoturizm salohiyatidan oqilona va samarali foydalanish usullarini takomillashtirish kabi istiqbolli yo‘nalishlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishda xususiy sektor vakillariga soliq imtiyozi berish bo‘yicha quyidagi holatlar belgilab berilgan:

<sup>1</sup> Ecotourism Global Market Report 2022. <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/ecotourism>.

<sup>2</sup> Юнусов Н. Узбекистан делает ставку на развитие экологического туризма. <https://podrobno.uz/cat/podrobno/uzbekistan-delaet-stavku-na-razvitie/>

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президент раислигида мамлакатимизнинг ички ва ташки туризм салоҳиятини янада ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши маърузаси. 19 сентябрь 2022 йил / Янги Ўзбекистон. 2022 йил 19 сентябрь

- yetib borish qiyin bo‘lgan va chekka joylarda (aholi yashash punktlaridan kamida 10 km yoki qattiq qoplamali avtomobil yo‘llaridan 5 km uzoqlikda) kempinglar va «safari» turizmini tashkil etish bo‘yicha turizm xizmatlarini ko‘rsatadigan yuridik shaxslar alohida avtonom infratuzilmani yaratgan taqdirda mazkur faoliyat turi bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, yer solig‘i va mol-mulk solig‘i, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliq to‘lashdan;

- yuridik shaxslar, ularning loyiha tashkilotlari, bosh pudratchi va subpudratchi tashkilotlari jahon standartlariga mos va zarur madaniy ko‘ngilochar infratuzilmalariga ega golf majmualarini barpo etish loyihasini amalga oshirish doirasida foyda solig‘i, yer solig‘i va mol-mulk solig‘idan:

- loyihani amalga oshirish uchun jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarning mehnatiga haq to‘lash fondi qismi bo‘yicha ijtimoiy soliqdan;

- loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tovarlarni, shu jumladan «vaqtinchalik olib kirish» bojxona rejimida olib kirishda bojxona boji va aksiz solig‘idan;

- namunaviy loyihalar bo‘yicha zamonaviy sanitariya-gigiyena shoxobchalarini qurish va (yoki) ularning faoliyatini tashkil etishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, yer solig‘i va mol-mulk solig‘i, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan ozod etish.<sup>1</sup>

Bugungi kunda O‘zbekiston xalqaro ekoturistik xizmatlar bozorida o‘zining noyob ekoturistik resurslarga egaligi, jumladan, ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha boy va to‘liq foydalanilmayotgan salohiyatga egaligi bo‘yicha jahonda 10-15 o‘rinni egallasa, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Jumladan, mamlakatimiz hududida to‘rt mingdan ortiq tarixiy, noyob arxitektura va tabiiy yodgorliklar mavjudligi aniqlangan. Shu bilan birgalikda, mamlakatimiz tabiatining maftunkorligi, tog‘ tizmalarini, yirik suv xavzalari, boy flora-fauna dunyosi va arid landshaftlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.<sup>2</sup>

Bu esa mamlakatimizning ekoturistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga ustuvorlik qaratish jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zaruriyatini oshiradi. Pandemiyadan keyingi davrda xalqaro turistik oqim hajmida tabiatning so‘lim go‘shalari, jumladan tog‘ yonbag‘irlari, suv bo‘ylari, tabiat bo‘ylab sayohat qilish va shahar hayotidan o‘zgacha bo‘lgan tabiiy qishloq hayotini yashash istagida turistik sayohatga chiquvchilar sonining ortganligini inobatga olgan holda, keyingi yillarda mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish orqali uni serdaromad sohaga aylantirish mumkinligini anglatadi.

Respublikamizdagi 9 ta qo‘riqxona, 2 ta milliy bog‘, 9 ta davlat buyurtmalari, «Jayron» ekomarkazi, noyob tabiat yodgorliklari juda katta ekoturistik potensialga ega. O‘zbekiston iqlimi, ob havosi yil davomida dam olish va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo, Farg‘ona, Toshkent viloyatlari o‘zlarining tog‘ landshaftlari, g‘orlari, tog‘ soylari va sharsharalari, buloqlari, ko‘llari, muzliklari bilan ekoturizm markazlariga aylanishlari mumkin. O‘rtacha balandlikdagi va baland tog‘larimizda yozda haroratning vodiylarga nisbatan 5-10 (harorat) past bo‘lishi, qishining juda ham sovuq emasligi, qalin qor qoplamini vujudga kelishi bu hududlarimizdan yil davomida ekoturizm maqsadlarida foydalanish imkoniyatini beradi.<sup>3</sup>

Ekoturizmni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash borasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlarida ekoturizmni investitsiyalash borasida turli dasturlari amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekistonda jami 11 ta «turistik qishloq»larni rivojlantirish bo‘yicha investitsion dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu investitsion dasturlarning uchtasi O‘zbekiston hududiga to‘g‘ri kelib ular Toshkent viloyatining Burchmulla, Chimyon va Xumson qishloqlari hisoblanadi. Shu bilan

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5781-сон фармони, 13.08.2019 й. <https://lex.uz/ru/docs/4474527>

<sup>2</sup> Шамуратова Н., Азимова Д., Закирлаева Л. Тошкент вилоятининг экотуристик имкониятлари. 29.04.2020 й. URL: <https://hidoyat.uz/37509>

<sup>3</sup> Шамуратова Н., Азимова Д., Закирлаева Л. Тошкент вилоятининг экотуристик имкониятлари. 29.04.2020 й. URL: <https://hidoyat.uz/37509>

birgalikda, Imom ota, Garasha, Langar, Shirmonbuloq, O'riklisoy, Oqsuv, Pishog'or, Sintob, Nanay, Qaynar, G'ova, Aydarko'l, Machay, Chodak, Omonqo'ton, Axsi, Sijjak, So'qoq, Kumushkon, Shoximardon, Vodil kabi qishloq va maxallalarda ham «turistik qishloq» va «turistik maxalla» dasturlari doirasida ekoturistik xizmatlar ko'rsatish amaliyotini rivojlantirish salohiyati yuqori hisoblanadi.

Masalan, Chimyon qishlog'i uni o'rabi turgan tog'lari bilan sarguzasht turizm ishqibozlarini o'ziga jalb qiladi. Kichik rayonning Toshkent shahriga yaqinligi, unda atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat korxonalarining yo'qligi, iqlimining yilning hamma fasllarida ham qulayligi (yumshoqligi), umuman tabiatining maftunkorligi, xilma-xilligi, tabiiy resurslarga boyligi, aholisining, madaniyati va urf-odatlari bu zonada ekoturizmni rivojlanishiga keng imkoniyatlar olib beradi. Chimyon-Beldirsoy boshqa kichik rayonlardan sport-turistik infrastrukturasi yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun unda turistlarning soni yoz mavsumida, haftaning ish kunlarida har kuni 3000 taga, yakshanbada esa 10000 tagacha, qishda esa dam olish kunlari 5000 tagacha yetadi. Agar bu kichik rayonda turistlar uchun barcha imkoniyatlar yaratilsa, unga tashrif buyuruvchilar soni yil davomida 350 ming tagacha yetishi mumkin.<sup>1</sup>

Jumladan "Chorvoq" erkin turistik zonasining 892 hektar yer maydonida amalgalashirilayotgan, umumiy loyiha qiymati 100 mln. AQSH dollarini tashkil etadigan birinchi yirik "Amirsoy" tog' kurorti loyihasining I bosqichi 2019-yilning 21-dekabr kuni yakunlanib, foydalanishga topshirildi. Qishda dam oluvchilar chang'i va snoubordlarda uchish, yozda esa plyajda hordiq chiqarish, velosipedlarda sayr qilish va dam olishning ekstremal turlari bilan shug'ullanishlari mumkin. Loyiha tog'-chang'i majmularining biznes boshqaruvi sohasida katta tajribaga ega bo'lgan PGI Management kompaniyasi tomonidan amalgalashirildi. Tog'-chang'i kurorti 580 kishiga mo'ljallangan bo'lib, 900 hektar yerda joylashgan. Dam olish maskanida soatiga 2400 kishini tashiy oladigan ikkita kanat yo'li mavjud. Uzunligi 15 km.dan ortiq bo'lgan sakkizta chang'i trassalari mavjud bo'lib, eng uzun yo'nalishning uzunligi 3350 m. Sun'iy qorli yo'llar tufayli chang'i mavsumi noyabrdan aprelgacha davom etishi mumkin. Tog'-chang'i kurortining o'ziga xosligi shundaki, atrof har qanday darajadagi chang'ichilar va snoubordchilar uchun mo'ljallangan. Endigina uchishni boshlayotganlar uchun beshta konveyer tipidagi ko'tarilish liftlari bo'lgan zona mavjud.<sup>2</sup>


Mehmonlar uchun jahoning yetakchi ishlab chiqaruvchi kompaniyalari Doppelmaer va SunKid tomonidan zamонави va xavfsiz ko'tarilish uskunalari o'rnatilgan. Qish mavsumida chang'i patruli xizmati tashkil etilgan bo'lib, ularning vazifasi kun davomida qoyalarda navbatda turish va kerak bo'lganda jarohatlanganlarga yordam ko'rsatishdan iborat. Shuningdek, dam oluvchilar uchun Shale uslubidagi 40 ta yog'och uyldan iborat Le Chalet by Amirsoy mehmonxonasi qurib bitkazilgan. Qulay va barcha sharoitlarga ega shalelar ikki xil kategoriya bo'lingan. Deluxe va Chalet Suites shaleлari dengiz sathidan 1630 metr balandlikda joylashgan bo'lib, eng yaqin ko'tarilish moslamasidan 2 daqiqalik uzoqlikda joylashgan. Loyihaning I bosqichini amalgalashirishda jami 77,5 mln. AQSH dollari, shundan 52,8 mln. AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya miqdorida mablag'lar o'zlashtirildi. 2021-yilda loyiha to'liq amalgalashirilib, 200 ta yangi ish o'rinnari tashkil etildi.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan viloyatlarning turistik xizmatlar ko'rsatish sohasi, jumladan, ekoturizmni rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar muntazam amalgalashirilib kelinmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizning turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida respublika hududlari kesimida turistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalilmayotgan jami 118 ta ekoturizmni rivojlantirish salohiyati yuqori bo'lgan hududlarni investitsion loyihalarni amalgalashirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari va

<sup>1</sup> Шамуратова Н., Азимова Д., Закирлаева Л. Тошкент вилоятининг экотуристик имкониятлари. 29.04.2020 й. URL: <https://hidoyat.uz/37509>

<sup>2</sup> Ўша манба

potensial investorlarga biriktirib berildi.<sup>1</sup> Ushbu holat respublikada ekoturizmni rivojlantirish salohiyati yuqori bo‘lgan hududlardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



**1-rasm. O‘zbekiston viloyatlari kesimida ekoturizmni rivojlantirish salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar soni, birlikda<sup>2</sup>**

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimizda ekoturistik xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha yuqori salohiyatga ega bo‘lgan hududlar soni Jizzax (43 ta) va Buxoro (17 ta) viloyatlarida respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan ko‘pligi bilan xarakterlansa, Qoraqolpog‘iston Respublikasi (2 ta), Qashqadaryo (3 ta) va Surxondaryo (3 ta) viloyatlarida esa aksincha, bu turdag'i hududlar soni kam hisoblanadi (1-rasmga qarang).

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligi holatini aniqlash maqsadida «SWOT» tahlili amalga oshirildi.

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimiz ekoturizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish va ushbu sohani barqaror rivojlanishiga erishishda quyidagi imkoniyatlarga egaligi aniqlandi:

- tabiiy hududlarning ekologik jihatdan qishloq va shaharga nisbatan havosining tozaligi hamda keng turdag'i ekoturistik resurslarning mavjudligi. Ushbu holat xalqaro ekoturistlarni xaqiqiy muhit xayotidan bahramand bo‘lish imkoniyatini oshiradi;

- tabiiy hududlarda tabiat bilan bog‘liq, tabiiy-ekologik yodgorliklar va boshqa merosning saqlanib qoliganligi. Jumladan, hududlarda turli jarlik, g‘or, surilma, qazilma konlari qoldiqlari, ko‘l va daryo sohillari, tabiatning so‘lim go‘shalari va boshqa tabiiy rekreatsiya resurslari, tabiiy landshaftlar bilan turistlarning yaqindan tanishishi va ushbu jarayonlarni kuzatish bilan birgalikda unda ishtirok etish imkoniyatini mavjudligi.

Shuningdek, mamlakatimiz ekoturizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagi muammolar mavjud ekanligi aniqlandi:

- respublika bo‘yicha infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- ekoturistik xizmatlar bozorida ishchi kuchining yetarli darajadagi ekologik madaniyati shakllanmaganligi, jumladan, kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarining pastligi;
- mamlakatning ekoturistik obyektlari bo‘ylab ekoturistik marshrutlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- maxalliy aholini, jumladan, xususiy sektor vakillarini ekoturistik xizmatlar ko‘rsatish sohasiga jalb qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligining pastligi;

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чоратадибрлари тўғрисида»ги ПК-3514-сон қарори, 07.02.2018 й. <https://lex.uz/docs/3551112>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чоратадибрлари тўғрисида»ги ПК-3514-сон қарорига 2-илова. 07.02.2018 й. URL: <https://lex.uz/docs/3551112> маълумотлари асосида тузилган.

- ekologik muammolarning avj olishi bilan birgalikda atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish bo'yicha ishlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi va h.k.

### Xulosa va takliflar

Fikrimizcha, keyingi yillarda yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish bilan birgalikda, mamlakatning ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagilarga ustuvorlik qaratish lozim:

- milliy ekoturizm industriyasini shakllantirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy asoslarni ishlab chiqish, jumladan, uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan «Ekoturizmni rivojlantirish konsepsiysi»ni amaliyotga joriy etish;

- oliv ta'lim muassasalarida ekoturizm bo'yicha ta'lim berish jarayonlarini mamlakatdagi ekoturistik xizmatlar ko'rsatish amaliyoti bilan bog'liqligini kuchaytirish;

- ekoturistik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha xalqaro talablarga mos keluvchi «Milliy ekoturizm standartlari»ni ishlab chiqish;

- ekoturizm sohasi bo'yicha axborotlar bazasini shakllantirish, jumladan, milliy ekoturizm sohasining rivojlanishining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni berib borish;

- ekoturistik resurslar va obyektlar o'rtaida ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish;

- milliy ekoturizm sohasini rivojlantirishda ekologik texnologiyalardan foydalanish amaliyotini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- hududlarni ekoturistik xizmatlar ko'rsatish ixtisoslashuvi bo'yicha guruhlash va ular o'rtaida integratsion munosabatlarni kuchaytirish;

- atrof muhitni himoyalash, ekologik barqarorlikni saqlash va «yashil zona»larni kengaytirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish;

- ekoturizmni rivojlantirishda davlat va xususiy sheriklik mexanizmini qo'llash orqali ekoturistik salohiyatdan foydalanish salohiyatini oshirish;

- milliy ekoturizm sohasining rivojlantirishni monitoring qilish tizimini shakllantirish;

- atrof muhitni himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish va bunda xususiy sektor vakillari ishtirokini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- ekoturistik transport infratuzilmasini takomillashtirish va bunda atrof-muhitga nisbatan kam zarar yetkazuvchi transport vositalari, jumladan, elektromobil hamda elektrobuslardan foydalanishni rag'batlantirish;

- ekoturistik sayohatlar tashkil etilayotgan hududlarda qattiq maishiy chiqindilar chiqishi hajmini kamaytirishda maxalliy aholi va ekoturistlarning ishtirokini kengaytirish;

- ekoturistik sayohatni tashkil etishda maxalliy jamiyat a'zolari ishtirokini kengaytirish;

- ekoturistik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan milliy standartlar tizimini xalqaro standartlar asosida ishlab chiqish;

- maxsus himoyalananadigan ekoturistik hududlarda atrof muhitni himoyalash hamda ekologik sayohatlarni tashkillashtirish bo'yicha davlat va maxalliy darajadagi dasturlarni ishlab chiqish;

- ekoturistlar uchun mo'ljallangan ekomexmonxona xizmatlarini tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini ishlab chiqish va h.k.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda ekoturizm sohasini rivojlantirish orqali quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikki erishiladi:

- nafaqat ekoturistik xizmatlar sohasi balki unga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o'rnlari yaratiladi;

- qishloq joylarda aholi daromadlari ortib, turmush farovonligi yaxshilanadi;

- ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish ko'rsatkichlari yaxshilanadi;

- mamlakat iqtisodiyotining, jumladan, ekoturizm sohasining investitsion jozibadorligi ortadi;

- ekologik resurslardan foydalanishning intensivligi ortib, atrof-muhit xavfsizligi va ekologik barqarorlik ta'minlanadi;

- mamlakatning xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hamkorlik aloqalari rivojlanadi;

- xalqaro turistik xizmatlar bozorida milliy ekoturizm industriyasining mavqeい ortib, yangi bozorlarni egallashga erishiladi;

- nafaqat xorijiy turistlar, balki maxalliy aholining yetarli darajada maroqli hordiq chiqarish imkoniyatlari ortadi.

Fikrimizcha, mamlakatimizning ekoturizm sohasini rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlari ushbu sohani mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining drayveriga aylantirishi mumkinligidan dalolat beradi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, milliy ekoturizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni kechiktirmaslik lozim, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

### **Foydalanimliqan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Pervozdannaya priroda Kazaxstana – potensial dlya razvitiya ekoturizma. [Elektronniy resurs] – URL: <https://www.undp.org/ru/kazakhstan/stories/>
2. World Tourism Organization. <https://www.unwto.org/ru>
3. The International Ecotourism Society. <https://ecotourism.org/>
4. World Wildlife Fund. <https://www.worldwildlife.org/>
5. Ecotourism Global Market Report 2022. <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/ecotourism>.
6. Yunusov N. Uzbekistan delayet stavku na razvitiye ekologicheskogo turizma. <https://podrobno.uz/cat/podrobno/uzbekistan-delaet-stavku-na-razvitie/>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezident raisligida mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi ma'ruzasi. 19-sentabr 2022-yil / Yangi O'zbekiston. 2022-yil 19-sentabr
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5781-sun farmoni, 13.08.2019 y. <https://lex.uz/ru/docs/4474527>
9. Shamuratova N., Azimova D., Zakirleyeva L. Toshkent viloyatining ekoturistik imkoniyatlari. 29.04.2020 y. URL: <https://hidoyat.uz/37509>
10. Shamuratova N., Azimova D., Zakirleyeva L. Toshkent viloyatining ekoturistik imkoniyatlari. 29.04.2020 y. URL: <https://hidoyat.uz/37509>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3514-sun qarori, 07.02.2018 y. <https://lex.uz/docs/3551112>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3514-sun qaroriga 2-ilova. 07.02.2018 y. URL: [https://lex.uz/docs/3551112\\_ma'lumotlari\\_asosida\\_tuzilgan](https://lex.uz/docs/3551112_ma'lumotlari_asosida_tuzilgan).
13. Қодиров А.А. Экологик туризмни ривожлантиришда халқаро ташкилотларнинг ўрни // Biznes-эксперт. –Т.: 2021. – №2–Б.57-61 (08.00.00 № 3).
14. Қодиров А.А. Theoretical basis of ecological tourism development in the system of socio-economic relations // Journal of Management Value & Ethics. –G.:2021. – Vol. 11, No. 2. P.30-36. (08.00.00 № 6).
15. Kodirov A.A. Opportunities For The Development Of Ecotourism In Bukhara Region// The American Journal of Management and Economics Innovations. –USA: 2021. – Volume 03, Issue 06-26. – P. 178-182. (Impact factor SJIF: 5.562).
16. Қодиров А.А. Экологик туризм захираларидан оқилона фойдаланиш муаммолари ва истиқболларини баҳолаш масалалари // Логистика ва иқтисодиёт. – Т.: 2021. – № 5. – Б.322-329. (OAK раёсатининг 293/6-сон қарори 27.02.2021й.)
17. Қодиров А.А. Худудларда экотуризмни ривожлантиришнинг ижтимоий самарадорлигини баҳолашга услубий ёндашув // Biznes-эксперт. –Т.: 2022. – №2. – Б.100-103. (08.00.00 №3)
18. Қодиров А.А. Экотуристик хизматларга талабни баҳолаш (Бухоро вилояти мисолида) // Логистика ва иқтисодиёт. –Т.: 2022. – № 4. – Б.246-251. (OAK раёсатининг 293/6-сон қарори 27.02.2021й.)

19. Қодиров А.А. Issues of rational use of ecological tourism resources // International Multidisciplinary Scientific Conference on Educational Advancements and Historical Developments. Berlin: 2021. – Р.63-64.
20. Қодиров А.А. Opportunites for the development of ecotourism in modern conditions // Сборник статей XXXIII Международной научно-практической конференции. Пенза: 2021. – С.117-119.
21. Қодиров А.А. Туристик корхоналарнинг товар сиёсати ва уни шаклланишининг ўзига хос хусусиятлари // Туризм, таълим ва иқтисодиёт соҳаларида стратегик ислоҳотлар долзарбилиги. Халқаро илмий-амалий конференция мақолалари тўплами. Бухоро: 2018. – Б.556-561.
22. Қодиров А.А. Экологик туризмнинг худудий ва маҳаллий захираларидан оқилона фойдаланиш масалалари // Ўзбекистон олимлари ва ёшлиарининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари. Республика илмий конференцияси материаллари тўплами. Тошкент: 2021. – Б.16-18.